

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA AXLOQIY QARASHLARINING AHAMIYATI

Abdiyeva Odina Xolnazar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Ma'naviyat asoslari mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Email: abdiyevaodina9@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-6266-9331>

Ilmiy rahbar: Shaymanova Adiba Ergashevna

Turon universiteti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya va axloqiy masalalaridagi qarashlari, shuningdek islom ta'limotida tarbiya to'g'risida so'z yuritilgan. Sharq mutafakkirlarining ta'limga va odob-axloqqa oid yondashuvlari, insonlar ongiga axloq tushunchasini va vositasini sindirish, hayotda ulardan to'g'ri va oqilona foydalanish muhim xususiyatlardan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axloq, tarbiya, ta'lim, Ibn Sino, Forobiy, mutafakkir, maktab, tafakkur, ilm, hadis, tasavvur, olimlar, taraqqiyot.

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ, ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ И НРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация В данной статье рассмотрены взгляды восточных мыслителей на вопросы образования, воспитания и нравственности, а также раскрыты основные положения исламского учения о воспитании. Показаны подходы мыслителей Востока к обучению и этике, подчеркнута важность формирования у человека нравственных представлений и умений, а также их разумного и правильного применения в повседневной жизни.

Ключевые слова: нравственность, воспитание, образование, Ибн Сина, Фараби, мыслитель, школа, мышление, знание, хадис, воображение, учёные, развитие.

THE IMPORTANCE OF THE EDUCATIONAL, EDUCATIONAL AND MORAL VIEWS OF EASTERN THINKERS

Annotation This article examines the views of Eastern thinkers on education, upbringing, and moral issues, and also discusses the principles of Islamic teachings on moral education. It highlights the approaches of Eastern scholars to teaching and ethics, emphasizing the importance of instilling moral concepts and skills in individuals and using them wisely and correctly in everyday life.

Keywords: ethics, upbringing, education, Ibn Sina, Farabi, thinker, school, thinking, knowledge, hadith, imagination, scholars, development.

KIRISH

Bugungi kunda har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga, axloqqa doir bir qancha an'analari borki, ular insoniyat taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Chunki, qaysi xalq bo'lishidan qat'iy nazar avvalo uning odob-axloqqa, ta'lim tarbiyaga nechoqlik e'tibor qaratishi kerakligi asosiy o'rinda turadi. Shu sababli millatlarni kategoriyaga ajratayotganda o'sha millatning ta'limi, tarbiyasi va axloqi alohida sanab o'tiladi. Jahonda shunday millatlar va xalqlar borki, ularning ta'lim tarbiyasi, axloqiy qarashlari har jabhada o'zini namoyon qilib turadi. Umuman olganda ta'lim-tarbiya va axloqiy tushunchalarni insonlar ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalari, targ'ibot-tashviqot tadbirlarining o'zi yetarli bo'lmaydi, aksincha, buyuk ulamolarning bizga yozib qoldirgan qimmatli asarlarini o'qib ulardan to'g'ri xulosalar olishimiz joiz bo'ladi. Bularni esa, sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida kuzatish mumkindir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xususan, ilk o'rta asr buyuk mutafakkirlaridan biri, o'z davrining yorqin yulduzi Abu Nasr Forobiy edi. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, hayotbaxsh hurfikrlik shakllanishi va umuman Yaqin va O'rta sharq mamalakatlarida ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti uning nomi bilan bog'liqdir. Forobiy ilk o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi 160 dan ortiq risola yaratdi. Forobiy ta'lim-tarbiya va axloqqa doir "Fozil odamlar shahri" asarida quyidagilarni keltirib o'tadi: "Ta'lim-tarbiya ahllari ham bilimlarning darajasiga qarab bir-biridan farq qiladi, ularning ba'zilarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi, ba'zilarida esa bu quvvat kamroq bo'ladi. Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, yaxshi axloqli odobli, notiq va bilimdon bo'lsin. Shunday odamlarnigina aqlli va to'g'ri fikr yurutuvchi deb atash mumkun". Shu sababli, ham Forobiy tarbiya va axloqqa alohida ahamiyat qaratish kerakligini ta'kidlab o'tadi. Har bir insonga ma'lumki ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy xislatlar hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, aksincha, ularning paydo bo'lishining haqiqiy manbasi ularni keltirib chiqaradigan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlardir. Zero, har qanday tarbiyaviy, axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudga kelgan va o'ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanib borganligi hech kimga

sir emas. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga, axloqqa doir qarashlari bu tajribalarning shakllanishiga va ravnaq topishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Tarbiya har bir insonning yoshligidan shakllangan va butun umr unga hamrohlik qiladigan kuchidir. "Tarbiya" so'zi aslida arab tilidagi "rabba" fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, "o'stirdi", "ziyoda qildi", "rioyasiga oldi" va "islah qildi" ma'nolarini anglatadi. Islomda bolalar tarbiyasi eng ma'suliyatli burchdir. Chunki, bolaning kelajakda kim bo'lishi ham albatta unga berilgan tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Insonda axloq va tarbiya bo'lmasa ta'lim olishi juda qiyindir, agar ilm bo'lsa-yu tarbiya bo'lmasa, u dunyoda eng xavfli va xatarli insondir, chunki u insonlar boshqa turli kulfat va balolarni keltirishi mumkin. Shuning uchun ham dinimizda eng avvalo tarbiyaga katta e'tibor qaratiladi. Islom dini o'zining asosiy manbalari - Qur'oni karim va hadislar orqali inson hayotining barcha jihatlarini yoritib beradi, ayniqsa ta'lim-tarbiya masalalarida hadislarining tutgan o'rni beqiyosdir. Rasululloh (s.a.v)ning hayotiy faoliatlari va u zotdan rivoyat qilingan ko'plab hadislar nafaqat diniy, balki ijtimoiy, axloqiy va ma'rifiy va ma'naviy tarbiyaning mukammal asosidir.

MUHOKAMA

Hadislar orqali insoniyatga ilmning fazilati, axloqning ahamiyati, oiladagi tarbiyaning o'rni yuksak qadriyat sifatida ko'rsatib beriladi. Abu Huvayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda, Payg'ambarimiz alayhissalom: "Men yaxshi axloqlarni kamoliga yetkazish uchun Payg'ambar qilib yuborilganman dedilar", - deyiladi. Bu o'z-o'zidan ma'lumki, islom dinida hattoki axloqli insonlar shakllanishi uchun hattoki Alloh Taolo bizga Payg'ambarimizni jo'natganini ko'rishimiz mumkin. Johillik va nodonlikning kushandasi ilm egallash va ta'lim-tarbiya olishdir. Hazrati Ali roziyallohu anhudaning "O'zingizga va ahlingizga ta'lim beringlar va ularni odobli qilinglar" degan fikrlari bejiz aytilmagan. Ta'kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Isroil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassasiy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddin Kubro, Sulaymon Boqirg'oni, Adulxoliq G'ijduvoni, Bahovuddun Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafakkirlar islom ta'limotini, Qur'oni Karimni, Payg'ambarimiz aytgan so'zlari,

diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatlardan iborat manba-hadisi shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta'sirida ijod qilib, yetishib kelayotgan yosh avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, buyuk mutafakkirlarimizning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi shuningdek, asarlarining mazmun mohiyati Qur'oni karim va hadisi sharif ta'limotiga asoslanadi. Biz ta'lim tarbiya masalalarining tutgan o'rnini tahlil qilar ekanmiz, bu davrda ya'ni yuqorida keltirilgan mutafakkirlar davrida ma'naviy-marifiy tafakkurning xarakterli tomoni shundaki, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq, sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar va ta'limotlarni ham bilimning ilmiy tasavvurning bir ko'rinishi sifatida o'z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda axloq-odob va tarbiya inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutafakkirlarimiz asalarida keng o'rin egalladi.

Sharq mutafakkirlarining yana bir buyuk allomasi hisoblangan Abu Ali Ibn Sinoning ham ta'lim tarbiya haqidagi qarashlari, avvalo inson aqli to'g'risidagi ta'limot bilan bog'liqdir. Xususan, u o'z aqlini har tomonlama rivojlantirish va haqiqatni bilishga qodir inson qobiliyatiga ishonadi. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, Ibn Sino ilmga egalik qilishni nafaqat aql bilan balki uni axloq va insoniylik bilan qattiq bog'langan deb hisoblaydi. Shuning uchun, ham mutafakkirning ilm-axloq munosabatlari borasida bildirgan fikrlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ibn Sino "Tadbiri manzil" asarida oila jamiyatning ajralmas qismi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, oila boshlig'i bola tarbiyasida ham amaliy ham nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak deydi, yana mutafakkir oila boshlig'ini bu sohada yetarli bilimi tajribasi bo'lmasa oila a'zolariga yaxshi tarbiya bera olmaydi.

Ta'lim-tarbiya faqatgina oilada mustahkam qaror topishini Ibn Sino o'z asarlari orqali yoritib bergan. „Tarbiya“ tushunchasiga musulmon ulamolar necha xil ta'rif berganlar. Xususan, Rog'ib Asfihoniy tarbiyani shunday ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir". Chunki tarbiya masalasiga alohida e'tibor berilmasa u insoniyatga bir qator xavf-xatar keltirishi ham mumkun.

XULOSA

Xulosa, qilib shuni aytish o'rinliki, insoniyat tarixiy tajribasi asosida sharq mutafakkirlari tomonidan zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi, uning asosiy subyektlari roli va vazifalari tizimlashtirilgani hech kimga sir emas. Yuqorida keltirilgan fikrlarda ham yurtimizda ta'lim-tarbiyaga qanday ahamiyat berilganini ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda ta'lim-tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilmas ekan ijtimoiy soha oqsayveradi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv va texnika zamonida yoshlarni oq va qorani ajratib olishlari uchun ham ta'lim-tarbiyaning o'rne juda muhim va bunga ham davlat ham jamiyat ham katta e'tibor qaratishlari zarurdir. Shuning uchun, ham yurtimizda keyingi yillarda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas, buning uchun avvalo oila, maktab va universitetlarda ko'plab targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish kerak. Chunki ilm-fan va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti jamiyat ravnaq topishining eng asosiy bo'g'inidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Nasr Forobiy, Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1993 y, 182-190 b.
2. B.X.Raximov, N.N.Narziyev, Pedagogik mahorat, Guliston 2021 y, 26-30 b.
3. Jalilova. X. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari. Toshkent 2021;
4. Ibragimova Sh. Islom ta'limotida ta'lim-tarbiya masalalarining ifodalanishi.
[https:// doi.org/ 10.5281/zenodo.79002683](https://doi.org/10.5281/zenodo.79002683)